

“Hokim kubogi”ni qo’lga kiritishda TIQXMMI Buxoro filiali jamoalari peshqadamlar safida

5 ta muhim tashabbusining ijrosi hamda mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy – ma’naviy bilimlarini yanada mustahkamlash va amaliy ko’nikmalarini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy faolligini oshirish hamda yoshlarni Vatanimiz, xalqimiz, milliy qadriyatlarimiz, tarixiy – ma’naviy merosimizga hurmat va sadoqatli qilib tarbiyalash, ularning bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ijodiy salohiyati va ularning o’z iqtidorlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish maqsadida oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlari o’rtasida “Quvnoqlar va zukkolar” ko’rik-tanlovining “Hokim kubogi” musobaqasi e’lon qilingan edi. Tanlov oliy ta’lim muassasalari fakultetlaridagi talaba yoshlardan iborat jamoalar o’rtasida tashkil etilmoqda.



Mazkur ko’rik tanlov nizomiga asosan filialning 2 fakultetidan 2 tadan 4 ta jamoa: Yangi yulduzlar, tiktok, onlayn, milliard! Buxoro viloyati Yoshlar Markazida bo’lib o’tgan shou tarzidagi konsert dasturida 400 nafarga yaqin tomoshabinlar yig’ilishdi. Ko’rik-tanlov ko’tarinki, pozitiv kayfiyatda bo’lib o’tdi. Dastur yakunida jamoalarning kamchilik va xatolari hakamlar hay’ati tomonidan ta’kidlab o’tildi.



Bellashuv natijalariga ko’ra filial sha’nini bitta terma jamoa himoya qiladi. Final ya’ni Buxoro viloyining 4 OTM terma jamoalari o’rtasidagi o’yin yaqin kunlarda Ark qo’rg’onida bo’lib o’tishi kutilmoqda. Filialning “Irrigator” terma jamoasiga omad tilab qolamiz.

TIQXMMI Buxoro filiali matbuot xizmati
TIQXMMI matbuot xizmati